CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

HASANOVA SUMANBAR HAMROQULOVNA

RAQAMLI PLATFORMALAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABALARDA FORSAYT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.06-Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Chirchiq-2026

UO‘K: 378.018.43.091.3:004

Pedagogika fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации
на соискание ученой степени доктора педагогических наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of the dissertation submitted for the degree of Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)

Hasanova Sumanbar Hamroqulovna
Raqamli platformalar integratsiyasi asosida talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirish metodikasi……..….....3

Ҳасанова Суманбар Ҳамроқуловна
Методика развития форсайт-компетентности студентов на основе интеграции цифровых платформ ……...……...29

Hasanova Sumanbar Hamroqulovna
Methodology for developing students’ forsayt competence based on the integration of digital platforms.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of publications.....62

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

HASANOVA SUMANBAR HAMROQULOVNA

RAQAMLI PLATFORMALAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABALARDA FORSAYT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.06-Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Chirchiq-2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.DSc/Ped1563 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspu.uz/uz ilmiy-kengash) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Rasmiy opponentlar:

Qayumova Nasiba Ashurovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sa’dullaayeva Shaxlo Azimbayevna
fizika – matematika fanlari doktori professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “6”: 11 soat 14 00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (541 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Chirchiq shahari, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712- 45-41.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “24. 10 da tarqatildi.
(2026-yil “24” 10 dagi 30 - raqamli reyestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda global texnologik transformatsiya jarayonlari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga mutaxassislarning kelajak kasblariga tayyorgarlik darajasiga oid yangi talablarni qo'ymoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), YUNESKO va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda 2030-yilga borib mavjud kasblarning sezilarli darajada o'zgarishi, yangi kasblarning paydo bo'lishi va bu jarayonda mutaxassislarda kelajakni oldindan ko'ra bilish, prognozlashtirish va strategik qarorlar qabul qilish ko'nikmalari (forsayt kompetentlik) muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Ayniqsa, talabalar uchun ushbu kompetentlik nafaqat shaxsiy professional rivojlanish, balki yosh avlodni tez o'zgaruvchan texnologik muhitga tayyorlash vositasi sifatida ham dolzarb hisoblanadi.

Jahon mehnat bozorida yuz berayotgan jadal o'zgarishlar, yangi kasblarning paydo bo'lishi va mavjud kasblarning transformatsiyasi ta'lim tizimidan kelajakni oldindan ko'ra oladigan, prognozlashtira oladigan mutaxassislar tayyorlashni talab qilmoqda. Shuningdek Yevropa Ittifoqining FIT4FUTURE tashabbusi doirasida STEM o'qituvchilarini uzoq muddatli prognozlashtirish va strategik rejalashtirish ko'nikmalari bilan qurollantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, talabalari nafaqat mavjud bilimlarni o'rgatuvchi, balki bo'lajak mutaxasislarni kelajak kasblariga tayyorlovchi, ularda strategik fikrlashni shakllantiruvchi mutaxassis sifatida forsayt kompetentlikka ega bo'lish zaruriyatini asoslaydi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiyani amalga oshirish va kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-martdagi "Raqamli ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 158-son qarorida ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish va ularni zamonaviy talablar asosida tayyorlash masalalari alohida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"[1], 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[2], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". - https://lex.uz/docs/-5030957

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" - https://lex.uz/docs/-4545884

keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[3]gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarildi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Raqamli platformalar integratsiyasi asosida talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirish mavzusiga oid ilmiy-nazariy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida olib borilmoqda. Xususan, AQSHda Massachusetts Institute of Technology (MIT), Western Washington University, The Ohio State University, George Mason University, Florida A&M University, University of Houston, University of Missouri; Buyuk Britaniyada University of Cambridge, Manchester University, Coventry University, Avstraliyada Melbourne University, Monash University, Macquarie University, Kanadada Toronto University, McGill University, Germaniyada Technische Universität München, Ispaniyada University of Murcia, Malayziyada Universiti Sains Malaysia, Turkiyada Gazi University, Rossiyada Lomonosov Moscow State University kabi markazlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Raqamli platformalar integratsiyasi asosida talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy-amaliy natijalar olingan: forsayt metodologiyasining nazariy asoslari va uni strategik rejalashtirishda qo‘llash masalalari o‘rganilgan (Manchester University, Buyuk Britaniya; Hawaii University, AQSH), ta’limda forsayt kompetentlikni shakllantirish muammolari o‘rganilgan va “Kelajak laboratoriyalari” konsepsiyasi ishlab chiqilgan (Massachusetts Institute of Technology, AQSH), sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalalari o‘rganilgan (Northwestern University, AQSH), ta’limda forsayt kompetentlikni shakllantirish muammolari o‘rganilgan va «Kelajak laboratoriyalari» konsepsiyasi ishlab chiqilgan (Melbourne University, Avstraliya), o‘qituvchilarning strategik fikrlash va prognozlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikalari ishlab chiqilgan (Manchester University), ta’lim tizimlarini modellashtirish va ularning rivojlanish tendensiyalarini prognozlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan (MIT, AQSH), senariy rejalashtirish va yo‘l xaritalari (roadmapping) metodlarini ta’limda qo‘llash imkoniyatlari o‘rganilgan (University of Houston, AQSH), kompyuterli modellashtirish vositalarining (AnyLogic, Vensim, NetLogo) ta’lim jarayonida qo‘llanilishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan (Western Washington University, AQSH), forsayt kompetensiyalar modeli (Forsayt Competency Model) ishlab chiqilgan va professional futuristlar tayyorlash tizimiga joriy etilgan (Houston University, AQSH), ta’limda raqamli

[3] 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son Qarori. “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. - https://lex.uz/ru/docs/-3765586

platformalar va simulyatsion muhitlardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan (University of Missouri, AQSH), ta’limda kollaborativ platformalar va interaktiv muhitlardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan (Toronto University, Kanada).

Biroq, raqamli platformalar integratsiyasi asosida talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirish metodikasi, xususan, forsayt kompetentlik tarkibiga axborot-kommunikatsion komponentni kiritish, forsayt metodlarini raqamli platformalar bilan integratsiyalash, sun’iy intellekt imkoniyatlariga ega maxsus platforma (“INFORSIGHT”) yaratish va uni ta’lim jarayonida qo‘llash masalalari xorijiy tadqiqotlarda maxsus o‘rganilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini asoslaydi. Xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim platformalari, forsayt metodologiyasi, sun’iy intellektdan foydalanish, ta’lim analitikasi va mobil ta’lim vositalari bo‘yicha muayyan ilmiy natijalar mavjud. Biroq ushbu yo‘nalishlar ko‘pincha alohida-alohida tadqiq qilingan. Talabalarda forsayt kompetentligini aynan raqamli platformalar integratsiyasi, ya’ni LMS/HEMIS tizimlari, mualliflik “INFORSIGHT” platformasi, sun’iy intellekt xizmatlari, Telegram bot, test-statistika moduli va chat-kommunikatsiya vositalarini yagona pedagogik tizimga birlashtirish asosida rivojlantirish masalasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot raqamli platformalar integratsiyasi asosida forsayt kompetentligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishga yo‘naltirilganligi bilan dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Raqamli ta’lim muhitini shakllantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish, elektron ta’lim resurslaridan foydalanish, kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassislar tayyorlash hamda forsayt metodologiyasini pedagogik jarayonga tatbiq etish masalalari mamlakatimiz, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi va xorij olimlari tomonidan turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Mamlakatimiz olimlaridan Sh.Begimqulov pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritgan bo‘lib, uning tadqiqotlari raqamli ta’lim muhitini tashkil etishning metodologik poydevorini belgilashda muhim ahamiyatga ega. M.H.Lutfillayev kompyuterli simulyatsion modellar va elektron ta’lim resurslari asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan. M.Aripov, A.A.Abduqodirov va U.Mirsanov axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish, elektron o‘quv resurslari va masofaviy ta’limning didaktik imkoniyatlarini asoslaganlar. N.I.Taylaqov elektron ta’lim resurslari va axborot-ta’lim muhitining mazmuniy-didaktik imkoniyatlarini yoritgan bo‘lsa, F.M.Zakirova raqamli ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik loyihalash va elektron o‘quv-metodik ta’minotni takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan. M.R.Fayziyeva raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim platformalarini yaratish va amaliyotga joriy etishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqqan. F.Toshpo‘latov, D.M.Maxmudova, N.Abdurahmonova tomonidan ta’limda forsayt yondashuvlari, strategik fikrlash va kelajak kompetensiyalarini shakllantirishga oid masalalar o‘rganilgan. A.J.Xurramov, M.U.Maxkamova va A.I.Yusupova

tadqiqotlarida forsayt markazlarining maqsad va vazifalari, ularning ilmiy-innovatsion rivojlanishdagi o‘rni yoritilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan I.V.Bestujev-Lada ijtimoiy prognozlash va forsayt metodologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan. A.M.Novikov va D.A.Novikov pedagogik tadqiqot metodologiyasi, ta’lim jarayonini loyihalash va boshqarish masalalarini yoritgan. V.P.Bespalko, G.K.Selevko pedagogik texnologiyalarni loyihalash va natijaga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini shakllantirish bo‘yicha muhim ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. A.V.Xutorskoy va I.A.Zimnyaya kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish masalalarini tadqiq etganlar. M.V.Klarin, V.V.Kraevskiy va V.A.Slastenin ta’lim jarayonini modellashtirish, pedagogik loyihalash va innovatsion metodlarni tatbiq etish masalalarini ilmiy asoslaganlar. L.M.Andryuxina, K.V.Vavaeva va L.A.Komlichenko tadqiqotlarida XXI asr kompetensiyalari, forsayt metodologiyasi va raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Xorijiy olimlardan B.R.Martin texnologik forsaytning strategik tadqiqot yo‘nalishlarini aniqlashdagi ahamiyatini asoslagan. R.Popper forsayt metodlari tasnifi va ularni strategik rejalashtirishda qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilgan. J.Dator kelajakning muqobil senariylarini ishlab chiqish yondashuvlarini rivojlantirgan. R.Slaughter ta’limda kelajak tafakkuri va futures education konsepsiyasini asoslagan. A.Hines forsayt kompetensiyalari modelini ishlab chiqqan bo‘lsa, P.Bishop strategik forsayt va senariyli rejalashtirish metodlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlarini yoritgan. Günnur Kochar va M.Soner Cheliktash texnologik prognozlash, Delphi usuli va SWOT tahlilini strategik rejalashtirishda qo‘llash bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqqanlar.

Yuqoridagi tadqiqotlar raqamli ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv, forsayt metodologiyasi, pedagogik modellashtirish va strategik rejalashtirishning nazariy asoslarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Biroq talabalarda forsayt kompetentligini aynan raqamli platformalar integratsiyasi asosida, xususan, HEMIS yoki LMS tipidagi o‘quv jarayonini boshqarish tizimlari, mualliflik “INFORSIGHT” platformasi, sun’iy intellekt xizmatlari, Telegram bot, test-statistika moduli, chat-kommunikatsiya vositalari va elektron o‘quv resurslarini yagona metodik tizimga birlashtirish orqali rivojlantirish masalasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur ilmiy bo‘shliq ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Guliston davlat universitetining “Fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirish” mavzusidagi ilmiy-amaliy rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli platformalar integratsiyasi, xususan, “INFORSIGHT” platformasining sun’iy intellekt, test-statistika, chat-kommunikatsiya, Telegram bot va elektron o‘quv resurslari bilan integratsiyalashgan imkoniyatlari asosida talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarda forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish;

raqamli platformalar integratsiyasi asosida forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalarini takomillashtirish;

forsayt kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli platformalar integratsiyasini ta’minlashning tashkiliy jihatlarini asoslash;

forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishda integrativ raqamli platformalaridan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish;

forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishda integrativ raqamli platformalaridan foydalanish samaradorligini dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalarida “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo’llash” fanini raqamli platformalar integratsiyasi asosida o‘qitish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Samarqand davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat universiteti va Shaxrisabz davlat pedagogika institutidan jami 354 nafar talaba ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti raqamli platformalar integratsiyasi asosida talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod, vosita va texnologiyalari, shuningdek, “INFORSIGHT” platformasi orqali amalga oshiriladigan o‘quv, kommunikativ, diagnostik va reflektiv faoliyat mexanizmlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy, metodik adabiyotlar, elektron ta’lim resurslarini qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik metodlar - kuzatish, suhbat, tashxislash, so‘rovnoma, test, tajriba-sinov natijalarini matematik va statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, “INFORSIGHT” platformasi orqali olingan test natijalari, talabalarning o‘quv faolligi, topshiriqlarni bajarish holati, chat-muloqot va o‘zlashtirish statistikasi kabi raqamli iz ko‘rsatkichlari pedagogik tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari raqamli platformalar integrativ modellarini interdissiplinar kontekstda axborotlar kesishuvi bo’yicha pedagogik arxitektura va murojaatlar shaffof tahlilida modifikatsiyalash asosida ochib berilgan;

raqamli platformalar integratsiyasi asosida forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari kasbiy ma’lumotlar bazasida prognostik qarorga yo‘naltiruvchi akademik funksiyalarni talabalar o‘zlashtirish intervallariga ko‘ra darajalash asosida takomillashtirilgan;

forsayt kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli platformalar integratsiyasi talabalarning akademik prognoz va nostandart vaziyatlar tahliliga yo‘naltirilgan strategik faoliyati diagnostikasini ta’lim natijalariga mos differensial maqbullashtirish orqali ta’minlanishi asoslab berilgan;

forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishda integrativ raqamli platformalaridan foydalanish texnologiyalari axborot kontentlari bilan ishlash, o‘zgaruvchan jarayonlarga moslashish kabi harakatlar tizimini mustaqil ta’lim topshiriqlari

bo’yicha individual ta’lim trayektoriyasida real vaqt rejimida personal belgilash asosida takomillashtirilgan;

forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishda integrativ raqamli platformalaridan foydalanish samaradorligi analitik tahlil, prognostik qaror, strategik reja ko‘nikmalarini imitatsion jarayon va amaliy tajribalar muhitida intensiv rivojlantirishni dasturiy ta’minlash hamda ergonomik tashkil etish orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirishning strukturaviy-funksional modeli asosida “Axborot texnologiyalarni kasbiy faoliyatda qo’llash” fani doirasida qo‘llashga mo‘ljallangan maxsus o‘quv-metodik materiallar ishlab chiqilgan;

talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish, nazariy bilimlarini amaliy mashg‘ulotlar bilan integrativ rivojlantirish, test natijalarini tahlil qilish va individual ta’lim trayektoriyasini belgilash imkonini beruvchi “INFORSIGHT” platformasi ishlab chiqilgan;

“INFORSIGHT” platformasi admin, o‘qituvchi va talaba panellaridan iborat bo‘lib, unda mashg’ulot yaratish, sun’iy intellekt yordamida o‘quv kontenti va test tuzish, guruhlarni boshqarish, talabalarning o‘zlashtirishini real vaqt rejimida monitoring qilish, chat orqali muloqot qilish va Telegram bot orqali tezkor kirish imkoniyatlari yaratilgan;

platformadan foydalanish manzili sifatida inforsight.page.gd, Telegram orqali tezkor kirish vositasi sifatida @inforsightbot belgilangan;

talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi “Informatika o‘qitish metodikasi” , “Turizmda raqamli texnologiyalar” darsliklari nashr qilingan;

fanlararo bog‘liqlik, ehtimollik-statistik modellashtirish va tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik tahlil qilishga xizmat qiluvchi “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” darsligi nashr qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mavzuga oid ilmiy-nazariy manbalarning qiyosiy tahlili, qo‘llanilgan metodlarning tadqiqot maqsadi va vazifalariga mosligi, tajriba-sinov ishlarida nazorat va tajriba guruhlari natijalarining solishtirilgani, “INFORSIGHT” platformasi orqali olingan test natijalari, o‘quv faolligi va monitoring ko‘rsatkichlarining tahlil qilingani, tajriba-sinov natijalarining matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlangani hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarda forsayt kompetentligini raqamli platformalar integratsiyasi asosida rivojlantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslari aniqlashtirilgani, “forsayt kompetentlik” tushunchasiga mualliflik ta’rifi berilgani, uning motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv va axborot-kommunikatsion komponentlari tizimlashtirilgani, raqamli platformalar integratsiyasining pedagogik arxitekturasi asoslangani hamda forsayt kompetentligini rivojlantirishning strukturaviy-funksional modeli takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Axborot texnologiyalarni kasbiy faoliyatda qo’llash” fanida talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-metodik materiallar, forsayt topshiriqlari, dars ishlanmalari,

diagnostika vositalari va baholash mezonlari ishlab chiqilgani, shuningdek, “INFORSIGHT” platformasi orqali mashg’ulot yaratish, test tuzish, o‘quv natijalarini monitoring qilish, talabalarning raqamli izini tahlil qilish va individual ta’lim trayektoriyasini belgilash imkoniyatlari yaratilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli platformalar integratsiyasi asosida talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirish metodikasiga doir tadqiqot natijalari asosida:

talabalarda forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari raqamli platformalar integrativ modellarini interdissiplinar kontekstda axborotlar kesishuvi bo’yicha pedagogik arxitektura va murojaatlar shaffof tahlilida modifikatsiyalashga oid tavsiyalari “Informatika o‘qitish metodikasi” darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 461298-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, oliy ta’lim muassasalarida informatika o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida forsayt kompetentlikni rivojlantirishga oid nazariy-metodik asoslar takomillashtirilgan.

raqamli platformalar integratsiyasi asosida forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari kasbiy ma’lumotlar bazasida prognostik qarorga yo‘naltiruvchi akademik funksiyalarni talabalar o‘zlashtirish intervallariga ko‘ra darajalashga oid tavsiyalari “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrdagi 537-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 537455-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning ehtimollik-statistik modellashtirish, prognozlashtirish va forsayt ssenariylarining yuzaga kelish ehtimolini baholashga oid bilim va ko‘nikmalari takomillashtirilgan.

forsayt kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli platformalar integratsiyasi talabalarning akademik prognoz va nostandart vaziyatlar tahliliga yo‘naltirilgan strategik faoliyati diagnostikasini ta’lim natijalariga mos differensial maqbullashtirish orqali ta’minlanishga doir takliflari “Turizmda raqamli texnologiyalar” darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026 yil 10-apreldagi 7766-9669-d910-74ca-6421-0701-7936-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, oliy ta’limda raqamli o‘quv-metodik komplekslarni loyihalash jarayonida forsayt kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompyuterli modellashtirish vositalaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilgan;

forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishda integrativ raqamli platformalaridan foydalanish texnologiyalari axborot kontentlari bilan ishlash, o‘zgaruvchan jarayonlarga moslashish kabi harakatlar tizimini mustaqil ta’lim topshiriqlari bo’yicha individual ta’lim trayektoriyasida real vaqt rejimida personal belgilashga doir takliflari IL - 4821091548 - sonli “Zamonaviy tahdid va da'vatlar sharoitida O'zbekiston va Belarus yoshlari ongi shakllanishining ijtimoiy - madaniy va aksiologik asoslari” fundamental loyihasining metodik mazmunini shakllantirishda foydalanilgan (Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universitetining 2026-yil 1-iyundagi 04/11-12836-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, oliy ta’limda raqamli o‘quv-metodik komplekslarni yaratish jarayonida forsayt metodlari va raqamli

platformalarning integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi ta’minlangan hamda “INFORSIGHT” platformasi orqali talabalarning loyiha faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta elektron platforma, 3 ta darslik, 5 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan 10 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 202 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika oliy ta‘lim tizimi, fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘yekti va predmeti belgilangan, tadqiqot usullari hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot ishining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Raqamli muhitda talabalar forsayt kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida, raqamli platformalar integratsiyasi va forsayt kompetentligining nazariy-metodologik asoslari yoritildi.. Bu bobda ishlab chiqilgan nazariy-metodologik asoslar raqamli platformalar integratsiyasi orqali talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirishning keyingi boblarda yoritiladigan konseptual asoslari, strukturaviy-funksional modeli va metodik tizimini yaratish uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi. Talabalarda forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari raqamli platformalar integrativ modellarini interdissiplinar kontekstda axborotlar kesishuvi bo’yicha pedagogik arxitektura va murojaatlar shaffof tahlilida modifikatsiyalash asosida ochib berilgan.

Raqamli platforma – bu foydalanuvchilarga turli xil raqamli xizmatlar, resurslar va vositalarni taqdim etuvchi, ularning o‘zaro hamkorligini ta‘minlovchi, ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va saqlash imkoniyatiga ega bo‘lgan yaxlit tizimdir. Ta‘lim kontekstida raqamli platforma deganda o‘quv materiallarini joylashtirish, talabalar bilan o‘zaro aloqa qilish, topshiriqlarni bajarish va baholash, shuningdek, ta‘lim jarayonini boshqarish imkonini beruvchi elektron muhit tushuniladi. Bularga LMS platformalari (Moodle, Edmodo), ochiq onlayn kurslar

(Coursera, edX), kollaborativ vositalar (Google Workspace, Microsoft Teams), maxsus yo‘naltirilgan platformalar va boshqalar kiradi.[4]

Raqamli platformalar integratsiyasi – bu turli xil raqamli platformalar, vositalar va resurslarning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash, ularni yagona ta‘lim muhitida birlashtirish va ma‘lum pedagogik maqsadlarga erishish uchun tizimli ravishda qo‘llash jarayonidir. Integratsiya deganda platformalarning texnik jihatdan o‘zaro bog‘lanishi (masalan, API orqali ma‘lumot almashinuvi) bilan bir qatorda, ularning didaktik maqsadlar, o‘qitish metodlari va baholash tizimlari darajasida ham uyg‘unlashtirilishi tushuniladi. Raqamli platformalar integratsiyasi ta‘lim jarayonining uzluksizligi, ma‘lumotlarning markazlashgan holda boshqarilishi va foydalanuvchilarning yagona interfeys orqali turli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.[5]

Zamonaviy ta‘lim tendensiyalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar va ularning integratsiyasi ta‘lim mazmunini boyitish, o‘qitish usullarini diversifikatsiya qilish va talabalarning mustaqil faoliyatini faollashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Raqamli platformalar integratsiyasining pedagogik imkoniyatlari quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Ta‘lim mazmunini boyitish imkoniyati raqamli platformalar orqali talabalarga nafaqat darslik materiallari, balki dolzarb statistik ma‘lumotlar, xalqaro tahliliy hisobotlar, multimedia kontentlari, video darslar va interfaol simulyatsiyalar taqdim etilishida namoyon bo‘ladi. Bu esa ta‘lim mazmunining real hayot bilan bog‘liqligini ta‘minlaydi. O‘qitish jarayonini individuallashtirish imkoniyati raqamli platformalarning integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi orqali talabalarning bilim darajasi, qiziqishlari va o‘zlashtirish sur‘atiga mos ravishda individual ta‘lim trayektoriyalarini yaratish imkonini beradi. Talaba o‘ziga qulay vaqtda, qulay tezlikda materiallarni o‘zlashtirish, kerakli manbalarga qayta murojaat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Platformalar integratsiyasi bu jarayonda turli manbalardan olingan ma‘lumotlarning yagona tizimda birlashtirilishini ta‘minlaydi. Interfaol va kollaborativ ta‘lim muhitini yaratish imkoniyati forumlar, chatlar, videokonferensiyalar, birgalikda hujjatlar ustida ishlash vositalari orqali talabalarning o‘zaro hamkorligini va o‘qituvchi bilan muloqotini kuchaytiradi. Raqamli platformalar integratsiyasi turli kollaborativ vositalarning bir-biri bilan bog‘lanishi va ulardan yagona ta‘lim muhitida foydalanish imkonini yaratadi. Bu esa bilimlarni birgalikda qurish va tajriba almashish jarayonlarini faollashtiradi. Ta‘lim natijalarini monitoring va baholash imkoniyati raqamli platformalarning integratsiyasi orqali talabalarning faolligini, topshiriqlarni bajarish vaqtini, o‘zlashtirish darajasini avtomatik tarzda kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Turli platformalardan olingan ma‘lumotlarning markazlashgan holda yig‘ilishi va tahlil qilinishi o‘qituvchiga o‘z vaqtida pedagogik ta‘sir ko‘rsatish va zarur korreksiyalarni kiritish imkoniyatini yaratadi.

Prognozlash va modellashtirish imkoniyati maxsus platformalar orqali talabalarning trendlarni tahlil qilish, kelajak senariylarini yaratish, «agar... bo‘lsa»

[4] Jan van Dijck, Thomas Poell va Martijn de Waal bilan hammualliflikda yozilgan The Platform Society: Public Values in a Connective World (2018)

[5] Niels Kerssens va José van Dijck (2023) — “How platformisation affects pedagogical autonomy in primary schools”, World Yearbook of Education 2024: Digitalisation of Education in the Era of Algorithms, Automation and Artificial Intelligence, Routledge, 2023, pp. 89–105

(what-if) modellashtirish kabi murakkab analitik vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Bu platformalarning integratsiyasi turli tahliliy vositalar va ma‘lumotlar manbalarining birgalikda ishlashini ta‘minlaydi. Raqamli platformalar integratsiyasi, shuningdek, ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilari (talabalar, o‘qituvchilar, ma‘muriyat) o‘rtasida axborot almashinuvini soddalashtiradi, ta‘lim resurslaridan qayta foydalanish imkoniyatini yaratadi va ta‘lim jarayonining uzluksizligini ta‘minlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar integratsiyasi an‘anaviy ta‘limning cheklovlarini bartaraf etish, ta‘lim jarayonini moslashuvchan va talabaga yo‘naltirilgan qilish, shuningdek, talabalarda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlar yaratadi. Bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish esa raqamli platformalarni ta‘lim jarayoniga tizimli va rejali integratsiya qilishni, ularning o‘zaro uyg‘unligini va yagona didaktik maqsadlarga yo‘naltirilganligini ta‘minlashni talab etadi.

Zamonaviy ta‘lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – jadal sur‘atlar bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda kelajakni oldindan ko‘ra oladigan, prognozlashtira oladigan va shu asosda strategik qarorlar qabul qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun bu ko‘nikmalar nafaqat shaxsiy professional rivojlanish, balki yosh avlodni kelajak kasblariga tayyorlash nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, «forsayt kompetentlik» tushunchasi pedagogika fani oldida turgan dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

«Forsayt» atamasi “forsight” ingliz tilidan olingan bo‘lib, «oldindan ko‘rish», «uzoqni ko‘ra bilish», «kelajakni prognozlashtirish» ma‘nolarini anglatadi.[6] Dastlab XX asrning ikkinchi yarmida iqtisodiyot va biznes sohasida strategik rejalashtirish usuli sifatida paydo bo‘lgan forsayt, keyinchalik fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion siyosat va nihoyat, ta‘lim sohasiga ham kirib keldi. Forsayt oddiy prognozlashtirishdan farqli o‘laroq, kelajakning bir necha muqobil senariylarini yaratish, ularni tahlil qilish va eng maqbul yo‘nalishni tanlashga asoslanadi.

Ilmiy adabiyotlarda forsayt ko‘pincha prognoz, bashorat yoki istiqbolni ko‘rish tushunchalari bilan yonma-yon qo‘llanadi. Biroq forsaytning an’anaviy prognozdan farqi shundaki, u faqat voqelik qanday bo‘lishini taxmin qilish bilan chegaralanmaydi. U manfaatdor subyektlarning birgalikdagi tahlili, muqobil qarashlar to‘qnashuvi, ehtimoliy xavf va imkoniyatlarni muhokama qilish, kelajakni shakllantirishga qaratilgan faol harakatlarni rejalashtirish jarayonini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli ta’limda forsayt yondashuvi talabani tayyor bilim oluvchidan kelajakdagi kasbiy vaziyatlarni loyihalay oladigan faol subyektga aylantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda forsayt kompetentlik tushunchasi faqat futurologik tasavvur yoki umumiy strategik fikrlash sifatida emas, balki ta’limiy, texnologik va kasbiy jarayonlarni raqamli muhitda tahlil qilish hamda ularning ehtimoliy rivojlanish ssenariylarini asoslashga qaratilgan integrativ shaxsiy sifat sifatida talqin etiladi. Bunday talqin kompetensiyaviy yondashuvning asosiy talabiga mos keladi: talaba

[6] Hines, A., Gary, J., Daheim, C., & van der Laan, L. (2017). Building Foresight Capacity: Toward a Foresight Competency Model. World Futures Review, 9(3), 123–141.

bilimni bilishi bilan emas, balki uni murakkab vaziyatda qo‘llashi, natijani baholashi va yangi vaziyatga moslashtira olishi bilan tavsiflanadi.

Forsayt kompetentlik – talabaning ijtimoiy, texnologik va ta’limiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, kelajakning muqobil ssenariylarini ishlab chiqish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risk va imkoniyatlarni oldindan baholash, raqamli platformalar va modellashtirish vositalari asosida strategik qaror qabul qilishga tayyorligi hamda qobiliyatini ifodalovchi integral shaxsiy-kasbiy sifatdir.

Talabalarda mazkur kompetentlikni shakllantirishda integrativ modelga tayanish zarur. Integrativ model bu alohida fan, metod yoki dasturiy vositani qo‘llash emas, balki ta’lim maqsadi, o‘quv mazmuni, raqamli platforma, forsayt metodlari, tahliliy topshiriqlar, baholash mezonlari va talabaning mustaqil faoliyatini yagona pedagogik tizimga birlashtirishdir. Bunda ta’lim jarayoni o‘zaro bog‘langan komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida qaraladi. Tizimli yondashuv pedagogik jarayonning maqsad, mazmun, metod, vosita va natija qismlarini ajratib ko‘rsatish hamda ular o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda forsayt kompetentlik komponentlari, ularning pedagogik mazmuni va raqamli-integrativ ta’minoti umumlashtirildi.

1-jadval

Forsayt kompetentlik komponentlari va ularning raqamli-integrativ ta’minoti

Komponent	**Pedagogik mazmuni**	**Raqamli-integrativ ta’minot**	**Diagnostik ko‘rsatkich**
Motivatsion	Kelajakni bilishga qiziqish, yangilikka ochiqlik, kasbiy rivojlanishga ehtiyoj.	Motivatsion keyslar, kelajak kasblari bo‘yicha topshiriqlar, shaxsiy progress ko‘rsatkichlari.	Platformaga kirish faolligi, qo‘shimcha materiallarni o‘rganish, so‘rovnoma natijalari.
Kognitiv	Forsayt metodlari, trendlar, drayverlar, risklar va strategik rejalashtirish bo‘yicha bilimlar.	AI yordamida tushuntirish, elektron materiallar, testlar, trend tahlili bo‘yicha topshiriqlar.	Test natijalari, tushuncha xaritalari, nazariy savollarga javob sifati.
Faoliyatli	Ssenariy yaratish, yo‘l xaritasi tuzish, modellashtirish va qarorlarni asoslash ko‘nikmalari.	INFORSIGHT topshiriqlari, AnyLogic, Vensim, NetLogo asosidagi amaliy ishlar.	Loyiha sifati, modellashtirish natijasi, strategik yechimning asoslanganligi.
Refleksiv	O‘z faoliyati, xatolari va qarorlari oqibatini tahlil qilish, tuzatish kiritish.	Test tahlili, qayta urinishlar, refleksiv esse va o‘z-o‘zini baholash varaqalari.	Xatoni tushuntira olish, qarorni qayta asoslash, individual rivojlanish rejasi.
Axborot-kommunikatsion	Raqamli platforma, sun’iy intellekt, ma’lumotlar bazasi va muloqot vositalaridan foydalanish.	mashg’ulot, test, chat, statistika, AI yordamchi va fayllar modullari.	Raqamli topshiriqni bajarish aniqligi, muloqot faolligi, axborotni saralash sifati.

Forsayt kompetentlikning metodologik tuzilmasini aniqlashda uni bir butun, lekin ichki tarkibga ega bo‘lgan murakkab sifat sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq. Mazkur tadqiqotda ushbu kompetentlik besh komponent asosida izohlanadi: motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv va axborot-kommunikatsion komponentlar. Ushbu komponentlar alohida-alohida mavjud bo‘lmaydi. Ular bir-birini to‘ldiradi, rivojlantiradi va ta’lim jarayonida bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Raqamli platformalar integratsiyasi asosida forsayt kompetentligini rivojlantirishning konseptual asoslari**» deb nomlangan bo‘lib, raqamli platformalar integratsiyasi asosida talabalarda forsayt kompetensiyalarini rivojlantirishning konseptual yondashuvlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, forsayt kompetentligini samarali shakllantirish turli pedagogik yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida amalga oshiriladi.

2-jadval

Konseptual yondashuvlar va ularning raqamli platforma orqali amalga oshishi

Konseptual yondashuv	**Asosiy g‘oya**	**Platforma orqali amalga oshishi**
Tizimli yondashuv	Maqsad, mazmun, vosita, jarayon va natijani yagona tizim sifatida tashkil etish	Mashg’ulot, test, chat, statistika va monitoring modullarini yagona siklda bog‘lash
Faoliyatli yondashuv	Bilimni amaliy vaziyatda qo‘llash va tajriba orqali o‘zlashtirish	Muammoli topshiriq, loyiha, test va ssenariy yaratish faoliyatini tashkil etish
Integrativ yondashuv	Fanlararo bilim, metod va raqamli vositalarni uyg‘unlashtirish	INFORSIGHT, AI, LMS/HEMIS, modellashtirish vositalari va kommunikatsiya kanallarini bog‘lash
Kompetensiyaviy yondashuv	Natijani real faoliyatga tayyorgarlik darajasi bilan baholash	Test, loyiha, refleksiya, progress va amaliy topshiriqlar asosida baholash
Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv	Talabaning ehtiyoji, qiziqishi va o‘zlashtirish darajasini hisobga olish	Individual statistika, darajali topshiriqlar va shaxsiy maslahatlar
Raqamli-transformatsion yondashuv	Ta’limning mazmuni va boshqaruvini raqamli muhitda qayta tashkil etish	AI kontent, elektron test, dashboard va chat orqali moslashuvchan o‘qitish
Strategik-prognostik yondashuv	Kelajak ehtiyojlari va ehtimoliy ssenariylarni hisobga olish	Trend tahlili, roadmapping, ssenariy topshiriqlari va AI yordamchi
Refleksiv-diagnostik yondashuv	Xatoni tahlil qilish va keyingi faoliyatni korreksiya qilish	Test natijasi, progress, takroriy urinish va shaxsiy statistika
Ma’lumotlarga asoslangan yondashuv	Pedagogik qarorni real raqamli ko‘rsatkichlar bilan asoslash	Dashboard, o‘rtacha ball, urinishlar soni va murojaatlar tahlili
Aksiologik-etik yondashuv	Raqamli muhitda mas’uliyat, xavfsizlik va akademik halollikni ta’minlash	Rolga asoslangan kirish, test xavfsizligi va axborot ishonchliligini nazorat qilish

Xususan, tizimli yondashuv forsayt kompetentligini rivojlantirish jarayonini o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat yaxlit pedagogik tizim sifatida qarash imkonini beradi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa talabalarning amaliy faoliyati orqali prognozlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli platformalar integratsiyasi asosida forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari kasbiy ma’lumotlar bazasida prognostik qarorga yo‘naltiruvchi akademik funksiyalarni talabalar o‘zlashtirish intervallariga ko‘ra darajalash asosida takomillashtirilgan.

Talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirishda yuqorida ko‘rsatilgan yondashuvlar bir qator konseptual tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

3-jadval

Forsayt kompetentligini rivojlantirishning konseptual tamoyillari

Tamoyil	Mazmuni	Amaliy ko‘rinishi
Maqsadga yo‘naltirilganlik	Har bir faoliyat aniq kompetensiya komponentiga xizmat qiladi	Mashg’ulot, test, loyiha va monitoring natijasi oldindan belgilangan maqsadga bog‘lanadi
Integrativlik	Mazmun, metod, platforma, kommunikatsiya va baholash birlashtiriladi	INFORSIGHT modullari, AI va modellashtirish vositalari yagona jarayonda ishlatiladi
Shaffoflik	Natija va faoliyat dinamikasi ochiq tahlil qilinadi	Progress, test urinishlari, murojaatlar va o‘rtacha ball ko‘riladi
Adaptivlik	Ta’lim talabaning o‘zlashtirish darajasiga moslashtiriladi	Darajali topshiriq, qayta urinish, qo‘shimcha izoh va individual maslahat beriladi
Refleksivlik	Talaba o‘z xatosi va rivojlanish yo‘lini anglaydi	Natija tahlili, o‘z-o‘zini baholash va korreksion topshiriqlar qo‘llanadi
Etik xavfsizlik	Raqamli vositalardan mas’uliyatli foydalaniladi	Akademik halollik, test xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlar himoyasi ta’minlanadi

Yuqoridagi yondashuvlar alohida-alohida qo‘llanganda ham muayyan pedagogik samara beradi. Biroq talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirishda ularning yagona tizim sifatida uyg‘unlashuvi muhimdir.

Taklif etilayotgan modelning maqsadi - raqamli platformalar integratsiyasi asosida talabalarda forsayt kompetentligini bosqichma-bosqich rivojlantirish, ularni strategik fikrlash, ssenariy tuzish, raqamli modellashtirish, tahliliy qaror qabul qilish va refleksiv o‘zini baholash faoliyatiga tayyorlashdan iborat. Ushbu maqsad ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan, ma’lumotlarga asoslangan va raqamli muhit bilan qo‘llab-quvvatlangan jarayon sifatida tashkil etishni talab qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda talabaning mavjud bilim darajasi, ehtiyoji va o‘zlashtirish sur’ati hisobga olinishi lozim.

Modelning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: talabalarda forsayt metodlari haqidagi bilimlar tizimini shakllantirish; raqamli platformalar orqali tahliliy va prognostik topshiriqlarni tashkil etish; kompyuterli modellashtirish vositalaridan

foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish; o‘quv natijalarini real vaqt rejimida kuzatish; test, loyiha, refleksiya va raqamli izlar asosida baholashni yo‘lga qo‘yish; o‘qituvchi, talaba va platforma o‘rtasidagi pedagogik muloqotni tizimlashtirish.


Raqamli platformalar integratsiyasi asosida forsayt kompetentligini rivojlantirishning strukturaviy-funksional modeli yetti o‘zaro bog‘liq blokdan tashkil topadi: normativ-maqsadli blok, nazariy-metodologik blok, raqamli-integratsion blok, mazmunli-komponentli blok, tashkiliy-texnologik blok, diagnostik-baholash bloki va natijaviy blok. Bloklarning bunday ketma-ketligi pedagogik jarayonni faqat bayoniy emas, balki boshqariladigan va takomillashtiriladigan tizim sifatida tashkil etishga imkon beradi.

Raqamli-integratsion blokni alohida ajratish zarurati tadqiqot mavzusining asosiy mazmunidan kelib chiqadi. Agar modelda faqat maqsad, mazmun, texnologiya va natija ko‘rsatilsa, ‘platformalar integratsiyasi’ tushunchasi umumiy didaktik fon sifatida qolib ketadi. Modelning yangilangan variantida esa integratsiya mustaqil blok sifatida beriladi va u barcha boshqa bloklarga ta’sir ko‘rsatadi: maqsadni aniqlashtiradi, mazmunni raqamli resurslar bilan boyitadi, tashkiliy-texnologik jarayonni avtomatlashtiradi, baholashni ma’lumotlarga asoslaydi va natijaviy ko‘rsatkichlarni shaffoflashtiradi.

Modelning dinamik xususiyati uning doimiy ravishda takomillashtirilib borish imkoniyatini ta‘minlaydi. Natijaviy-baholash blokidan olingan ma‘lumotlar asosida modelning boshqa bloklariga kerakli o‘zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin, bu esa forsayt kompetentlikni rivojlantirish jarayonining uzluksiz takomillashib borishini ta‘minlaydi.

Kasbiy darajani prognozlash– talabalarning kelajakdagi kasbiy rivojlanish tendensiyalarini, ularning potensial imkoniyatlarini va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan aniqlash jarayonidir. U quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: mehnat bozori talablarini prognozlash (kelajakda talabgir kasblar, zarur kompetensiyalar, sohalar rivojlanish tendensiyalari); shaxsiy kasbiy rivojlanish traektoriyasini prognozlash (talabaning individual xususiyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash); kasbiy faoliyatdagi risklarni prognozlash (texnologik o‘zgarishlar, kasbiy standartlarning yangilanishi, raqobatning kuchayishi kabi omillarni oldindan aniqlash). Strategik funksiyalar – bo‘lajak mutaxassisning uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan, tizimli va rejali faoliyatini ifodalovchi funksiyalardir. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: strategik maqsadlarni belgilash (aniq va erishish mumkin bo‘lgan uzoq muddatli maqsadlarni shakllantirish); strategik rejalashtirish (maqsadlarga erishish yo‘llari, bosqichlari, resurslari va vaqt oralig‘ini belgilash); strategik qaror qabul qilish (noaniqlik sharoitida muqobil variantlar orasidan eng maqbulini tanlash va asoslash); strategik moslashuv (o‘zgaruvchan sharoitlarga tez va samarali moslasha olish); strategik liderlik (boshqalarga ta‘sir ko‘rsatish, jamoaviy faoliyatni tashkil etish); innovatsion-strategik funksiya (yangi g‘oyalarni yaratish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish).

Kasbiy darajani prognozlash va strategik funksiyalarni rivojlantirish bo‘lajak mutaxassislarning forsayt kompetentligining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularga kelajakdagi kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan noaniqliklar va qiyinchiliklarga tayyor bo‘lish, o‘z rivojlanish yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash va strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.




1-rasm. Talabalarda forsayt kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan strukturaviy-funksional modeli

INFORSIGHT platformasi bu modelda tayanch raqamli muhit sifatida ishlatiladi. Platformaning admin paneli tizim foydalanuvchilarini boshqarish, AI sozlamalarini nazorat qilish, umumiy statistika va xavfsizlikni ta’minlash vazifalarini bajaradi. Admin panel qo‘llanmasida foydalanuvchilar, rollar, statuslar, parolni tiklash, AI sozlamalari va dashboard ko‘rsatkichlari alohida modullar sifatida izohlangan. Shu jihatdan admin panel normativ-boshqaruv va raqamli-integratsion blok o‘rtasidagi bog‘lovchi vazifani bajaradi.


Dissertasiyaning uchinchi bobi «**Raqamli platformalar integratsiyasi asosida “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash” fanini o‘qitish metodikasi»** deb nomlanib «INFORSIGHT» platformasi va forsayt kompetentlikni rivojlantirish metodikasi bayon qilingan. Forsayt kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari deganda ta‘lim jarayonida raqamli platformalar imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarning strategik fikrlash, prognozlash va modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar, vositalar va usullar majmui tushuniladi.

INFORSIGHT platformasi forsayt kompetentlikni rivojlantirishning asosiy texnologik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi (inforsight.page.gd). Taklif etilayotgan strukturaviy-funksional modelning amaliy jihatdan muvaffaqiyatli ishlashini ta‘minlovchi muhim tarkibiy qism bu – mualliflik «INFORSIGHT» platformasi bo‘lib, u forsayt kompetentlikni rivojlantirish jarayonining texnologik asosini tashkil etadi va modelning barcha bloklarini yagona raqamli muhitda birlashtiradi. «INFORSIGHT» - zamonaviy uch qismli ta‘lim platformasi bo‘lib, admin, o‘qituvchi va talaba panellaridan iborat. Platforma sun‘iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalashgan bo‘lib, foydalanuvchilarga qulay va interaktiv ta‘lim muhitini yaratadi. Forsayt kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli platformalar integratsiyasi talabalarning akademik prognoz va nostandart vaziyatlar tahliliga yo‘naltirilgan strategik faoliyati diagnostikasini ta’lim natijalariga mos differensial maqbullashtirish orqali ta’minlanishi asoslab berilgan. Forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishda integrativ raqamli platformalaridan foydalanish texnologiyalari axborot kontentlari bilan ishlash, o‘zgaruvchan jarayonlarga moslashish kabi harakatlar tizimini mustaqil ta’lim topshiriqlari bo’yicha individual ta’lim trayektoriyasida real vaqt rejimida personal belgilash asosida takomillashtirilgan.



2 – rasm. Inforsight platformasi

Bu platforma afzalliklari shundaki SI integratsiyasi – o’quv mashg’ulot yaratish va test tuzishda yordamchi. Qulay boshqaruv muhiti admin va o‘qituvchilar uchun intuitiv panel ochilgan. Interaktiv ta‘lim ya‘ni, talabalar uchun qiziqarli va samarali muhit. Real-time statistika - doimiy monitoring va tahlil. Moslashuvchan dizayn - foydalanuvchi istagiga ko‘ra sozlash mumkin. «INFORSIGHT» platformasi taklif etilayotgan strukturaviy-funksional modelning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, forsayt kompetentlikni rivojlantirish jarayonining texnologik asosini tashkil etadi, modelning barcha bloklarining samarali ishlashini ta‘minlaydi va ularni yagona raqamli ta‘lim muhitida birlashtiradi. Platforma orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki kelajak senariylarini yaratadilar, strategik yo‘l xaritalarini ishlab chiqadilar va o‘zlarining forsayt kompetentlik darajasini mustaqil ravishda baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.



3- rasm. O‘qituvchi panelida mashg’ulotlarni boshqarish va mashg‘ulotni boshlash muhiti


«INFORSIGHT» platformasi foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida telegram messenger orqali tezkor kirish imkoniyatini taqdim etadi (@inforsightbot). Ya‘ni tezkor autentifikatsiya – foydalanuvchilar Telegram akkaunti orqali platformaga bir zumda kirishlari mumkin, qo‘shimcha ro‘yxatdan o‘tish talab qilinmaydi. Chat-bot yordamida talabalar va o‘qituvchilar o’quv mashg’ulot materiallariga kirish, testlarni bajarish, o‘zlashtirish natijasini ko‘rish, sun‘iy intellekt yordamchisiga murojaat qilish, guruh va o‘qituvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega. Mobil qulaylik mavjud. Telegram orqali platformaga istalgan joyda, istalgan vaqtda, internet tezligi past bo‘lgan sharoitlarda ham tezkor kirish imkoniyati bor. Muhim e‘lonlar, o’quv mashg’ulot o‘zgarishlari va yangiliklardan tezkor xabardor bo‘lishadi. Ushbu funksiya platformadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va foydalanuvchilarning platformaga kirishini soddalashtiradi. INFOSIGHT - Bilimni sun‘iy intellekt bilan uyg‘unlashtirgan zamonaviy ta‘lim

platformasi. Platforma doimiy rivojlanmoqda va yangi funksiyalar bilan boyitilmoqda.

Raqamli ta’limda HEMIS, LMS yoki Moodle kabi tizimlar muhim o‘rin tutadi. Biroq ularning vazifasi ko‘proq o‘quv jarayonini boshqarish, resurslarni joylashtirish, baholash ma’lumotlarini saqlash va rasmiy monitoring bilan bog‘liq. INFORSIGHT esa mazkur tadqiqot doirasida forsayt kompetentligini rivojlantirishga ixtisoslashgan platforma sifatida qaraladi. Uning markazida strategik fikrlash, AI yordamida o‘quv kontenti yaratish, test va statistik tahlil, refleksiya hamda pedagogik korreksiya turadi.

Bu farq HEMIS yoki Moodle imkoniyatlarini inkor etmaydi. Aksincha, INFORSIGHT ularning rasmiy boshqaruv va o‘quv jarayonini ro‘yxatga olish imkoniyatlarini metodik jihatdan to‘ldiradi. HEMIS ta’lim muassasasi darajasidagi boshqaruv, Moodle esa umumiy o‘quv kurslari muhitini qo‘llab-quvvatlasa, INFORSIGHT forsaytga yo‘naltirilgan kontent, ssenariy, AI yordamchi, statistik refleksiya va strategik topshiriqlar bilan ishlashga moslashtiriladi.

Raqamli platformalar asosida strategik o‘quv faoliyatini tashkil etish oldindan rejalangan algoritmga asoslanishi lozim. Bunda o‘qituvchi platformaga mashg’ulotni joylashtirish bilan cheklanmaydi, balki talabaning maqsad, resurs, faoliyat, monitoring, refleksiya va korreksiya bosqichlaridan izchil o‘tishini ta’minlaydi. Shu ma’noda platforma o‘qituvchining metodik qarorini kuchaytiruvchi vosita vazifasini bajaradi.



4- rasm. AI yordamida mashg’ulot mavzulari va rejasini shakllantirish oynasi.

Amaliy algoritm quyidagicha belgilanadi: dastlab mashg’ulot mavzusi va kutiladigan natija aniqlanadi; keyin mashg‘ulot va qo‘shimcha materiallar platformaga kiritiladi; AI yordamida muammoli savol yoki senariy topshirig‘i

tayyorlanadi; talabalar mashg'ulotni mustaqil o‘rganadi; test yoki amaliy topshiriq orqali natija aniqlanadi; statistik ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi;yakunda talaba va o‘qituvchi keyingi harakat rejasini belgilaydi. Bunda har bir bosqich pedagogik maqsadga ega bo‘lishi shart.

Forsayt kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi:

Muammoli ta‘lim texnologiyasi – real hayotdagi noaniq vaziyatlar va kelajakka oid muammoli topshiriqlarni hal qilish orqali talabalarning tanqidiy va strategik fikrlashini rivojlantirish. Bunda INFORSIGHT platformasidagi statistik ma‘lumotlar asosida muammoli vaziyatlar modellashtiriladi.

Loyiha texnologiyasi – talabalar tomonidan kelajak senariylarini ishlab chiqish, strategik yo‘l xaritalarini yaratishga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish. Platformaning sun‘iy intellekt yordamida tuzilgan o'quv mashg'ulot rejalari loyiha bosqichlarini belgilashda qo‘llaniladi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi – guruhli loyihalar, birgalikdagi tadqiqotlar, o‘zaro fikr almashish orqali forsayt kompetensiyalarni rivojlantirish. Platformaning statistik ma‘lumotlari va test natijalari guruhlar shakllantirishda hisobga olinadi.

Reflektiv ta‘lim texnologiyasi – talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolar ustida ishlash, o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Platformaning real-time statistika ma‘lumotlari refleksiya jarayoni uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu pedagogik texnologiyalarning o‘zaro uyg‘unligi talabalarda forsayt kompetentlikning barcha komponentlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Muammoli ta‘lim texnologiyasi kognitiv va faoliyatli, loyiha texnologiyasi faoliyatli va refleksiv, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi axborot-kommunikatsion va refleksiv, reflektiv ta‘lim texnologiyasi esa motivatsion va refleksiv komponentlarni rivojlantiradi. Raqamli platformalar integratsiyasi asosida forsayt kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari an‘anaviy o‘qitish usullariga nisbatan ta‘lim jarayonini individuallashtirish, real vaqt rejimida monitoring qilish, sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish va interaktiv ta‘lim muhitini yaratish kabi afzalliklarga ega. INFORSIGHT platformasi ushbu texnologiyalarni amalga oshirishning samarali vositasi sifatida forsayt kompetentlikni rivojlantirish jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llaniladi. Shuningdek raqamli platformalar integratsiyasi asosida “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” fanini o‘qitish metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda forsayt kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari, talabalarning strategik o‘quv faoliyatini tashkil etish va o'quv mashg'ulotlarni raqamli platformalar integratsiyasi asosida tashkil etish metodikasi yoritilgan. Mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi forsayt kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagi o‘quv mashg‘ulot turlarini o‘z ichiga oladi:

Nazariy o'quv mashg'ulotlar – forsayt metodologiyasi asoslari, trendlar tahlili, prognozlash usullari bo‘yicha nazariy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. O'quv mashg‘ulotlar «INFORSIGHT» platformasidagi bilimlar bazasi, video materiallar va interaktiv taqdimotlar asosida tashkil etiladi. Sun‘iy intellekt yordamida tuzilgan o‘quv mashg‘ulot rejalari nazariy materiallarni tizimli bayon qilish imkonini beradi.

Amaliy mashg‘ulotlar – talabalar INFORSIGHT platformasidagi statistik ma‘lumotlar asosida trendlarni tahlil qiladi, prognozlar yaratadi, senariylar ishlab

chiqadi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida statistik ma‘lumotlarni tizimlashtirish, trendlarni vizuallashtirish, qisqa muddatli prognozlar yaratish, “agar... bo‘lsa” tahlilini o‘tkazish kabi topshiriqlar bajariladi.

Loyiha mashg‘ulotlari – talabalar tomonidan guruhli yoki individual loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan. Loyiha mavzulari Informatika va raqamli texnologiyalar sohasidagi dolzarb muammolar, kelajak tendensiyalari bilan bog‘liq.

Nazorat turlari - joriy, oraliq va yakuniy nazorat INFORSIGHT platformasining test tizimi va real-time statistika ma‘lumotlari asosida amalga oshiriladi.

O‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etish tayyorgarlik (mashg‘ulot rejasini sun‘iy intellekt yordamida tuzish), tashkiliy (talabalarni platformaga ulash, Telegram orqali tezkor kirish), asosiy (nazariy va amaliy topshiriqlarni bajarish) va yakuniy (natijalarni tahlil qilish, refleksiya) bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Fan mavzulari bo‘yicha forsayt kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, u quyidagi topshiriq turlaridan iborat:

To‘rtinchi bob **«Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish»** deb nomlangan. Unda o‘tkazilgan tajriba – sinov metodikasi, uning natijalari va samaradorligi yoritilgan. To‘rtinchi bobning birinchi paragrafi “Forsayt kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi” deb nomlanib, tajriba-sinov ishlari bosqichlari, metodik ta‘minoti bayon qilingan. Forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishda integrativ raqamli platformalaridan foydalanish samaradorligi analitik tahlil, prognostik qaror, strategik reja ko‘nikmalarini imitatsion jarayon va amaliy tajribalar muhitida intensiv rivojlantirishni dasturiy ta’minlash hamda ergonomik tashkil etish orqali dalillangan.

Tajriba-sinov ishining maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarda forsayt (foresight) kompetentligini, kelajakni prognozlash tafakkurini, strategik fikrlashni va modellashtirish asosida qaror qabul qilish ko‘nikmalarini kompyuterli modellashtirish vositalari hamda maxsus ishlab chiqilgan “INFORSIGHT” platformasi yordamida rivojlantirish metodikasining amaliy samaradorligini sinovdan o‘tkazish va tasdiqlashdan iborat.

Tajriba-sinov gipotezasi quyidagi ilmiy farazga asoslandi: Agar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayoniga kompyuterli modellashtirish, raqamli forsayt texnologiyalari, kelajak senariylarini yaratish va tizimli prognozlash usullari uzluksiz integratsiya qilinsa, ularning analitik fikrlashi, innovatsion qaror qabul qilish qobiliyati hamda pedagogik prognozlash kompetentligi sezilarli darajada rivojlanadi. Chunki an’anaviy yondashuvlardan farqli ravishda, forsayt-texnologiyalar talabalarni passiv bilim oluvchidan kelajak ta’lim modellarini faol loyihalashtiruvchi subyektga aylantiradi.

Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalarni belgilab oldik:


Forsayt kompetentligining mezon va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish; Boshlang‘ich darajani aniqlash; Kompyuterli modellashtirish asosida metodik tizim yaratish; Eksperimental ta‘lim jarayonini tashkil etish; Yakuniy natijalarni diagnostika qilish; Samaradorlikni matematik-statistik tahlil qilish.

Pedagogik tadqiqot ishimizda χ^2 – Pirson mezonidan foydalandik. U ikkita to‘plamdagi yaqinlashish va farqlanishni yoki ularning nazariy va amaliy tadqiqotlari orasidagi tafovutni oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Tajriba sinov ishlari uch bosqichda, 2023-2026 yillar davomida amalga oshirildi. Uchinchi bosqichning tajriba - sinov ishlari, 2025-2026 o‘quv yilida Samarqand davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat universitetida va Shaxrisabz davlat pedagogika institutlarining Xorijiy til va adabiyoti: Ingliz tili ta’lim yo‘nalishi 2-3 kurslarida “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo’llash” fanidan o‘tkazilgan bo‘lib, nazorat va tajriba guruhlari, ulardan olingan test-sinov natijalari hamda dinamik o‘zgarishlar 6-jadvalda berilgan. Umumiy respondentlar soni 354 nafarni tashkil qilib shundan nazorat guruxida 177 nafar va tajriba-sinov guruhida 177 nafar talabalar qatnashdi.


Tajriba-sinov ishining maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarda forsayt (forsayt) kompetentligini, kelajakni prognozlash tafakkurini, strategik fikrlashni va modellashtirish asosida qaror qabul qilish ko‘nikmalarini kompyuterli modellashtirish vositalari hamda maxsus ishlab chiqilgan “INFORSIGHT” platformasi yordamida rivojlantirish metodikasining amaliy samaradorligini sinovdan o‘tkazish va tasdiqlashdan iborat. Forsayt kompetensiyalarni rivojlantirishda integrativ raqamli platformalaridan foydalanish samaradorligi analitik tahlil, prognostik qaror, strategik reja ko‘nikmalarini imitatsion jarayon va amaliy tajribalar muhitida intensiv rivojlantirishni dasturiy ta’minlash hamda ergonomik tashkil etish orqali dalillangan.

Tajriba-sinov gipotezasi quyidagi ilmiy farazga asoslandi: Agar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayoniga kompyuterli modellashtirish, raqamli forsayt texnologiyalari, kelajak senariylarini yaratish va tizimli prognozlash usullari uzluksiz integratsiya qilinsa, ularning analitik fikrlashi, innovatsion qaror qabul qilish qobiliyati hamda pedagogik prognozlash kompetentligi sezilarli darajada rivojlanadi. Chunki an’anaviy yondashuvlardan farqli ravishda, forsayt-texnologiyalar talabalarni passiv bilim oluvchidan kelajak ta’lim modellarini faol loyihalashtiruvchi subyektga aylantiradi.



5-rasm. Tajriba-sinov yakunidagi natijalarining diagrammasi.

Olingan natijalardan ma‘lumki tajriba yakunida Samarqand davlat pedagogika institutida samarodorlik 1,12 ga, Navoiy davlat universitetida 1,14 ga va Shaxrisabz davlat pedagogika instituti 1,14 ga oshgan. Umumiy holda esa 1,13 barobar oshgan. O‘rtacha o‘zlashtirishni foiz hisobida keltiramiz.



6-rasm. O‘rtacha o‘zlashtirish foizda

Samarqand davlat pedagogika institutida o‘rtacha o‘zlashtirish 9% ga, Navoiy davlat universitetida 10% ga va Shaxrisabz davlat pedagogika instituti 10% ga oshgan. Bu esa 10% ijobiy samaradorlikka erishgan hamda biz qo‘llagan metodika ijobiy natija berganligini ko‘rsatadi.

Eksperimental-sinov ishlari asosan “Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili” ta’lim yo‘nalishi talabalari negizida amalga oshirilganligi metodikaning mazkur yo‘nalish doirasidagi samaradorligini amaliy jihatdan tekshirish imkonini berdi. Shu bilan birga, tadqiqotda ishlab chiqilgan metodika mazmunan faqat xorijiy til ta’limiga xos bo‘lgan metodlar majmuasi sifatida emas, balki raqamli platformalar integratsiyasi asosida talabalarda forsayt kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan universal pedagogik tizim sifatida ishlab chiqilgan.

Metodikaning universalligi, avvalo, uning predmet mazmuniga emas, balki turli ta’lim yo‘nalishlarida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan umumiy pedagogik komponentlarga asoslanganligi bilan belgilanadi. Jumladan, metodikaning maqsadli, mazmuniy, texnologik, diagnostik va refleksiv komponentlari muayyan fan mazmunidan nisbatan mustaqil bo‘lib, ularni tegishli fan va kasbiy faoliyat mazmuniga moslashtirish imkoniyati mavjud. Bunda raqamli platforma ta’lim oluvchining axborotni izlash, tahlil qilish, muqobil rivojlanish variantlarini ishlab chiqish, ehtimoliy natijalarni baholash, strategik qaror qabul qilish va kelajakdagi o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish faoliyatini tashkil etuvchi universal didaktik muhit vazifasini bajaradi. Darslik va o‘quv –metodik materiallarda “Informatika o‘qitish metodikasi” hamda raqamli platformalardan foydalanilganligi metodikaning faqat informatika yo‘nalishi uchun mo‘ljallanganligini anglatmaydi. Aksincha, raqamli platformalar bu yerda forsayt kompetentligini shakllantirishning texnologik muhiti sifatida qaraladi.

XULOSA

1. Nazariy tahlillar natijasida “forsayt kompetentlik” tushunchasining mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi. Forsayt kompetentlik – bu mutaxassisning ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va ta’limiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, kelajakning muqobil senariylarini modellashtirish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni oldindan baholash va shu asosda strategik qarorlar qabul qilish qobiliyati hamda tayyorligini ifodalovchi integral shaxsiy sifatdir. Ushbu ta’rif forsayt kompetentlikni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tavsiflab, uning kompyuterli modellashtirish vositalari bilan bog‘liqligini ochib beradi.

2. Forsayt kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi (motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv va axborot-kommunikatsion komponentlar) aniqlandi. Forsayt yondashuvining falsafiy, futurologik, iqtisodiy va pedagogik asoslari tizimlashtirildi. Xalqaro ta’lim amaliyoti tahlili forsayt va kompyuterli modellashtirish integratsiyasi zamonaviy tendensiya ekanligini ko‘rsatdi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda forsayt kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati asoslandi.

3. Forsayt modellashtirish jarayoni 8 bosqichda (muammoni aniqlash va maqsadlarni belgilash, ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, drayverlarni aniqlash, senariylarni ishlab chiqish, senariylarni modellashtirish, tahlil va baholash, strategiyalarni ishlab chiqish, monitoring va yangilash) tizimlashtirilgan. Har bir bosqichning kompyuterli ta’minoti AnyLogic (senariylarni modellashtirish, gibrid simulyatsiyalar), Vensim (tizim dinamikasi modellari, prognozlar) va NetLogo (agentli modellashtirish, emergent xususiyatlarni o‘rganish) dasturlari asosida aniqlangan.

4. Forsayt kompetentlikni kompyuterli modellashtirish vositasida rivojlantirishning strukturaviy-funksional modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, u maqsadli, metodologik, tarkibiy, texnologik, baholash va natijaviy bloklardan iborat. Model kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan va axborot-kommunikatsion yondashuvlarga asoslangan. Forsayt kompetentlik komponentlari (motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv, axborot-kommunikatsion) bo‘yicha baholash mezonlari va to‘rt darajali (quyi, past, o‘rta, yuqori) baholash tizimi ishlab chiqilgan. Model forsayt kompetentlikni rivojlantirish jarayonining yaxlit tizim sifatidagi tasavvurini beradi va metodika ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

5. Kompyuterli modellashtirishga asoslangan forsayt metodlari majmuasi (senariy, roadmapping, simulyatsiya) va ularni amalga oshiruvchi “INFORSIGHT” mualliflik platformasi ishlab chiqilgan. Senariy metodlari (Delfi, senariy “vilkalari”, trendlar ekstrapolyatsiyasi, zaif signallar tahlili), yo‘l xaritalari (texnologik, mahsulot, integratsiyalashgan) va simulyatsion metodlar (tizim dinamikasi, agentli modellashtirish, diskret hodisalar, gibrid modellashtirish) AnyLogic, Vensim, NetLogo dasturlari bilan integratsiyalashgan holda tizimlashtirilgan.

6. “INFORSIGHT” platformasi asosida forsayt metodlarini qo‘llash bo‘lajak mutaxassislarning strategik fikrlash, prognozlash va tahliliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi samarali metodik vosita ekanligi aniqlandi.

7. Bo‘lajak o‘qituvchilarda forsayt kompetentlikni kompyuterli modellashtirish vositasida rivojlantirish metodikasi samarali ekanligi tajriva-sinov natijasida tasdiqlandi. Statistik tahlil natijalari (Pirson mezoni) guruhlar o‘rtasidagi farqning ishonchliligini ($p<0,05$) tasdiqladi. Samaradorlik koeffitsienti 1,13 ni tashkil etib, ishlab chiqilgan metodikaning an’anaviy ta’limga nisbatan 1,13 barobar samarali ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa taklif etilayotgan “INFORSIGHT” platformasi, AnyLogic, Vensim, NetLogo dasturlari asosidagi metodikaning bo‘lajak o‘qituvchilarda forsayt kompetentlikni rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Taklif va tavsiyalar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-pedagogik taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta’lim muassasalarining bo’lajak o‘qituvchilarini tayyorlovchi barcha fakultetlar o‘quv rejalariga “Forsayt kompetentlik asoslari” yoki “Kompyuterli modellashtirish asosida forsayt” nomli maxsus kursni (144 soat, 4 kredit) kiritish tavsiya etiladi.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarda forsayt kompetentlikni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan “INFORSIGHT” platformasini ta’lim jarayoniga joriy etish hamda undan AnyLogic, Vensim, NetLogo dasturlari bilan integratsiyalashgan holda foydalanish tavsiya etiladi.

3. Forsayt kompetentlikni baholashning ishlab chiqilgan diagnostika vositalari (testlar, so‘rovnomalar, amaliy topshiriqlar, baholash mezonlari) dan oliy ta’lim muassasalarida talabalarning forsayt kompetentlik darajasini monitoring qilishda foydalanish tavsiya etiladi.

4. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari dasturlariga barcha ta’lim yo’nalishi o‘qituvchilarining forsayt kompetentligini va kompyuterli modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus modullarni kiritish hamda “INFORSIGHT” platformasidan foydalanish bo‘yicha o‘quv-seminarlar tashkil etish tavsiya etiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАСАНОВА СУМАНБАР ХАМРОКУЛОВНА

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ФОРСАЙТ-КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ

13.00.06- Теория и методика цифрового образования

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации, написанной на соискание учёной степени доктора педагогических наук (DSc)

Чирчик-2026

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за номером B2026.2.DSc/Ped1563.

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Учёного совета (cspu.uz/uz ilmiy-kengash) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Оффициальные оппоненты:	**Каюмова Насиба Ашуровна** доктор педагогических наук (DSc), профессор
	Абдуллаева Барно Сайфутдиновна доктор педагогических наук (DSc), профессор
	Садуллаева Шахло Азимбаевна доктор физико-математических наук, профессор
Ведущая организация:	**Андижанский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «6» 11 2026 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 при Чирчикском государственном педагогическом университете. (Адрес: 111720, Ташкентская область, город Чирчик, улица Амира Темура, дом 104. Тел.: (99871) 712-27-55; факс: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета (зарегистрирована под №541). (Адрес: 111720, город Чирчик, улица Амира Темура, дом 104. Тел.: (99871) 712-27-55; факс: (99871) 712-45-41.)

Автореферат диссертации разослан «24» 10 2026 года.
(Протокол реестра рассылки № 30 от «24» 10 2026 года).

Ф.У.Кодирова
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук, профессор

И.Д.Кодиров
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

Д.О.Химматалиев
Председатель научного семинара при Учёном совете по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире процессы глобальной технологической трансформации, стремительное развитие искусственного интеллекта, больших данных (Big Data) и цифровой экономики выдвигают перед системой образования новые требования, связанные с уровнем подготовки специалистов к профессиям будущего. В отчётах, опубликованных Международной организацией труда (ILO), ЮНЕСКО и Организацией экономического сотрудничества и развития (OECD), подчёркивается, что к 2030 году существующие профессии существенно изменятся, появятся новые профессии, и в этом процессе важное значение приобретут навыки специалистов по предвидению будущего, прогнозированию и принятию стратегических решений (форсайт-компетентность). Особенно для студентов данная компетентность считается актуальной не только как средство личного профессионального развития, но и как средство подготовки молодого поколения к быстро меняющейся технологической среде.

На мировом рынке труда стремительные изменения, появление новых профессий и трансформация существующих профессий требуют от системы образования подготовки специалистов, способных предвидеть и прогнозировать будущее. Также в рамках инициативы Европейского союза FIT4FUTURE особое внимание уделяется вопросам вооружения STEM-преподавателей навыками долгосрочного прогнозирования и стратегического планирования. В частности, это обосновывает необходимость обладания студентами форсайт-компетентностью как специалистами, не только обучающими имеющимся знаниям, но и готовящими будущих специалистов к профессиям будущего, формирующими у них стратегическое мышление.

В нашей стране модернизация системы образования, осуществление цифровой трансформации и повышение качества подготовки кадров до уровня международных стандартов входят в число приоритетных направлений государственной политики. В постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 26 марта 2021 года № 158 «О мерах по развитию цифрового образования» особо отмечены вопросы внедрения инновационных технологий в образовательный процесс, повышения профессиональной компетентности преподавателей и их подготовки на основе современных требований.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, определённых в указах Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 года № УП-6079 «Об утверждении Стратегии “Цифровой Узбекистан — 2030” и мерах по её эффективной реализации»[7], от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года»[8], от 28 января 2022 года №

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. - https://lex.uz/docs/-5030957

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” - https://lex.uz/docs/-4545884

УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», постановлении от 5 июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в широкомасштабных реформах, осуществляемых в стране», а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная исследовательская работа выполнена в рамках I приоритетного направления развития науки и технологий республики «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Научно-теоретические исследования, связанные с темой развития форсайт-компетентности у студентов на основе интеграции цифровых платформ, проводятся в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждениях мира. В частности, исследования проводятся в таких центрах, как Massachusetts Institute of Technology (MIT), Western Washington University, The Ohio State University, George Mason University, Florida A&M University, University of Houston, University of Missouri в США; University of Cambridge, Manchester University, Coventry University в Великобритании; Melbourne University, Monash University, Macquarie University в Австралии; Toronto University, McGill University в Канаде; Technische Universität München в Германии; University of Murcia в Испании; Universiti Sains Malaysia в Малайзии; Gazi University в Турции; Lomonosov Moscow State University в России.

На основе исследований, проведённых в мире по развитию форсайт-компетентности у студентов на основе интеграции цифровых платформ, получены следующие научно-практические результаты: изучены теоретические основы методологии форсайта и вопросы её применения в стратегическом планировании (Manchester University, Великобритания; Hawaii University, США), изучены проблемы формирования форсайт-компетентности в образовании и разработана концепция «Лабораторий будущего» (Massachusetts Institute of Technology, США), изучены вопросы интеграции технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс (Northwestern University, США), изучены проблемы формирования форсайт-компетентности в образовании и разработана концепция «Лабораторий будущего» (Melbourne University, Австралия), разработаны методики развития навыков стратегического мышления и прогнозирования у преподавателей (Manchester University), проведены исследования по моделированию образовательных систем и прогнозированию тенденций их развития (MIT, США), изучены возможности применения методов сценарного планирования и дорожных карт (roadmapping) в образовании (University of Houston, США), проведены исследования по применению средств компьютерного моделирования (AnyLogic, Vensim, NetLogo) в образовательном процессе

(Western Washington University, США), разработана модель форсайт-компетенций (Forsayt Competency Model) и внедрена в систему подготовки профессиональных футуристов (Houston University, США), разработана методика использования цифровых платформ и симуляционных сред в образовании (University of Missouri, США), разработана методика использования коллаборативных платформ и интерактивных сред в образовании (Toronto University, Канада).

Однако методика развития форсайт-компетентности у студентов на основе интеграции цифровых платформ, в частности, вопросы включения информационно-коммуникационного компонента в структуру форсайт-компетентности, интеграции методов форсайта с цифровыми платформами, создания специальной платформы с возможностями искусственного интеллекта («INFORSIGHT») и её применения в образовательном процессе в зарубежных исследованиях специально не изучались. Это обосновывает необходимость проведения научно-исследовательских работ в данном направлении. Анализ зарубежных научных исследований показывает, что имеются определённые научные результаты по цифровым образовательным платформам, методологии форсайта, использованию искусственного интеллекта, образовательной аналитике и средствам мобильного обучения. Однако данные направления чаще всего исследовались по отдельности. Вопрос развития у студентов форсайт-компетентности именно на основе интеграции цифровых платформ, то есть объединения систем LMS/HEMIS, авторской платформы «INFORSIGHT», сервисов искусственного интеллекта, Telegram-бота, тестово-статистического модуля и средств чат-коммуникации в единую педагогическую систему, недостаточно освещён как специальный объект исследования. По этой причине данное исследование приобретает актуальное научно-практическое значение тем, что направлено на разработку методики развития форсайт-компетентности на основе интеграции цифровых платформ.

Степень изученности проблемы. Вопросы формирования цифровой образовательной среды, внедрения информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс, использования электронных образовательных ресурсов, подготовки специалистов на основе компетентностного подхода, а также применения методологии форсайта в педагогическом процессе исследованы учёными нашей страны, Содружества Независимых Государств и зарубежных стран в различных направлениях.

Из учёных нашей страны Ш.Бегимкулов осветил научно-теоретические основы внедрения современных информационных технологий в педагогическое образование, и его исследования имеют важное значение в определении методологической основы организации цифровой образовательной среды. М.Х.Лутфиллаев исследовал вопросы совершенствования образовательного процесса на основе компьютерных симуляционных моделей и электронных образовательных ресурсов. М.Арипов, А.А.Абдукодиров и У.Мирсанов обосновали дидактические возможности использования информационно-коммуникационных технологий в

образовательном процессе, электронных учебных ресурсов и дистанционного обучения.

Если Н.И.Тайлаков осветил содержательно-дидактические возможности электронных образовательных ресурсов и информационно-образовательной среды, то Ф.М.Закирова исследовала вопросы инновационных технологий, педагогического проектирования и совершенствования электронного учебно-методического обеспечения в процессе цифрового образования. М.Р.Файзиева разработала теоретико-методологические основы создания и внедрения в практику образовательных платформ в условиях цифровой трансформации. Ф.Тошпулатов, Д.М.Махмудова, Н.Абдурахмонова изучили вопросы, связанные с форсайт-подходами в образовании, стратегическим мышлением и формированием компетенций будущего. В исследованиях А.Ж.Хуррамова, М.У.Махкамовой и А.И.Юсуповой освещены цели и задачи форсайт-центров, их роль в научно-инновационном развитии.

